O'ZBEKISTONDA SOLIQ TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH ORQALI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI

Qurbanboyeva Odina Sayfiddin qizi
Sirdaryo viloyati soliq boshqarmasi davlat soliq katta inspektori
E-mail: qurbanboyevao@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.21358146

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda soliq tizimini raqamlashtirish va buning natijasida davlatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari, soliqqa tortish mexanizmlarini soddalashtirish va samarali tashkil etish yo'llari o'rganilgan. Shuningdek, maqolada raqamlashtirish jarayonining muammolari va afzalliklari, raqamli texnologiyalar vositasida soliq to'lovchilarga keng qulayliklar yaratish va davlat budjeti daromadlariga undiriladigan tushumlarni oshirish imkoniyatlari tadqiq etilgan.
Tayanch so'z va iboralar: Raqamlashtirish, raqamli texnologiyalar, elektron hukumat, fiskal siyosat, soliq tizimi, soliq siyosati, davlat budjeti, budjet siyosati, soliq to'lovchilar, soliq ma'murchiligi, soliqqa tortish mexanizmlari.

ЗНАЧЕНИЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ПОСРЕДСТВОМ ЦИФРОВИЗАЦИИ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация: В данной статье изучены цифровизация налоговой системы в Узбекистане и ее перспективы в социально-экономическом развитии государства, а также пути упрощения и эффективной организации механизмов налогообложения. Кроме того, в статье исследованы проблемы и преимущества процесса цифровизации, возможности создания широких удобств для налогоплательщиков посредством цифровых технологий и увеличения поступлений, взыскиваемых в доходы государственного бюджета.
Ключевые слова и фразы: Цифровизация, цифровые технологии, электронное правительство, фискальная политика, налоговая система, налоговая политика, государственный бюджет, бюджетная политика, налогоплательщики, налоговое администрирование, механизмы налогообложения.

THE IMPORTANCE OF IMPROVING TAXATION MECHANISMS THROUGH THE DIGITALIZATION OF THE TAX SYSTEM IN UZBEKISTAN

Abstract: This article examines the digitalization of the tax system in Uzbekistan and its subsequent prospects for the socio-economic development of the state, as well as ways to simplify and effectively organize taxation mechanisms. Furthermore, the paper investigates the challenges and advantages of the digitalization process, the opportunities for creating extensive conveniences for taxpayers through digital technologies, and methods for increasing revenues collected into the state budget.
Keywords and phrases: Digitalization, digital technologies, e-government, fiscal policy, tax system, tax policy, state budget, budget policy, taxpayers, tax administration, taxation mechanisms.

Kirish.

Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning deyarli barcha sohalariga tatbiq qilinib, mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda va aholining turmush darajasini o'sishi hamda rivojlanishida muhim omil bo'lib hisoblanmoqda. Shu sababli, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Davlat boshqaruvida soliq tizimining samaradorligi mamlakat iqtisodiy barqarorligi va xalq farovonligining asosiy omili hisoblanadi. Butunjahon iqtisodiyotida ko'plab davlatlar soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish vositasida davlat budjeti daromadlarini oshirish, soliq solish bazasini kengaytirish va soliq to'lovchilariga sifatli xizmat ko'rsatish bo'yicha keskin o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston ham ushbu yo'nalishda jadal islohotlar olib borilmoqda, hamda soliq tizimini raqamlashtirish muhim masala hisoblanadi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari davlat boshqaruvi va iqtisodiyotning barcha sohalariga shiddat bilan kirib bormoqda. Xususan, davlat budjetining asosiy daromad manbai hisoblangan soliq tizimini raqamlashtirish barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning eng muhim omili hisoblanadi.

O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida soliq tizimini tubdan isloh qilish, soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasidagi munosabatlarni inson omilisiz, shaffof va qulay shaklga keltirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Soliqqa tortish mexanizmlarini raqamlashtirish shunchaki texnik jarayon emas, balki iqtisodiyotda adolatli raqobat muhitini yaratishning bosh garovidir. Mazkur islohotlarning bosh maqsadi - soliq yukini kamaytirish, sohada inson omilini cheklash va byurokratiyani yo'qotish orqali biznes uchun shaffof muhit yaratishdan iboratdir.

O'zbekistonda soliq tizimini raqamlashtirish orqali soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish mamlakat iqtisodiyoti barqarorligi va biznes rivoji uchun strategik ahamiyatga ega. Bu jarayon shunchaki qog'ozbozlikdan qutulish emas, balki davlat va tadbirkor o'rtasidagi munosabatlarni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqishni anglatadi.

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va iqtisodiy jarayonlarning raqamlashtirilishi sharoitida ishlab chiqarish jarayonlarining yangi bosqichga chiqishi, tahlil, nazorat, prognozlashtirish jarayonlari hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda zamonaviy yondashuvlarni qo'llash uchun mustahkam asos yaratmoqda. Shuningdek, soliq to'lovchilar faoliyati ustidan nazoratning samarali tashkil etilishi bevosita soliq tizimining raqamlashtirilishi bilan bog'liqdir.

Xalqaro xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, soliq tizimini raqamlashtirish orqali, soliq solish ma'muriyatchiligini takomillashtirish

Adabiyotlar sharhi.

O'zbekistonda soliq tizimini yanada takomillashtirish, soliq ma'murchiligini raqamlashtirish to'g'risida mahalliy hamda xorijiy olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Mazkur tadqiqotlar natijasida soliq tizimi samaradorligini oshirish, soliq to'lovchilar bilan soliq xizmati organlari o'rtasidagi munosabatlarni yanada takomillashtirish hamda axborot komunikatsiya texnologiyalari asosida iqtisodiy jarayonlarni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini shakllantirishga bevosita xizmat qilgan.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan A. Jo'rayev (2019) o'zining tadqiqotlarida soliqlarning iqtisodiy mohiyati, soliq siyosatining asosiy tamoyillari va soliq ma'murchiligini tashkil etish masalalarini yoritgan. Muallif soliq tizimining samarali faoliyat yuritishi davlat budjeti barqarorligi va iqtisodiy rivojlanishning muhim omili ekanligini ta'kidlagan[1].

Richard Bird va Eric M. Zoltning (2003) "Tax Policy in Developing Countries" asarida rivojlanayotgan mamlakatlar uchun samarali soliq siyosatini shakllantirish masalalari

yoritilgan. Mualliflar soliq jarayonlarini avtomatlashtirish va raqamli platformalardan foydalanish orqali soliq yig‘imlarini oshirish hamda xatolarni kamaytirish imkoniyatlarini ko‘rsatadilar[2].

Charles E.McLure Jr.ning “Taxation of Electronic Commerce” nomli asarida elektron tijoratning soliq tizimiga ta’siri, yangi soliq muammolari va ularni hal etish mexanizmlari tahlil qilinadi. McLure elektron savdo sharoitida soliqqa tortish tamoyillarini qayta ko‘rib chiqish zarurligini asoslab beradi[3].

Michael Keenning “The Future of Tax Administration” asari soliqqa tortish ma’muriyatining kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlarini o‘rganadi. Unda sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar va raqamli texnologiyalar yordamida soliq boshqaruvini takomillashtirish hamda xalqaro tajribani qo‘llash yo‘llari tahlil qilinadi[4].

Alka Vashistning “Digital Taxation: Emerging Issues and Challenges” asarida raqamli soliqqa tortish tizimining shakllanishi, elektron tijoratda soliqqa tortish mexanizmlari va yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilingan. Muallif davlatlarning raqamli texnologiyalar yordamida soliqqa oid islohotlar olib borish tajribasini ham ko‘rsatadi [5].

Bogatirevaning (2014) fikricha, “soliqqa tortish islohoti bu davlat soliq tizimidagi qonuniy ravishda belgilangan o‘zgarish, bu davlat soliq siyosati strategiyasini o‘zgartirishga asoslanadi. Shunday qilib, soliq siyosati taktikasining o‘zgarishi soliqqa tortish islohotiga olib kelmaydi. Faqat soliq tizimiga tegishli amaldagi qonunchilikdagi o‘zgartish va qo‘shimchalar sifatida ko‘rib chiqiladi. Soliq siyosati strategiyasidagi o‘zgarishlar mamlakatda soliqqa tortish islohotlarini amalga oshirish uchun asosdir [6].

Erizal (2022) va boshqalar davlat soliq to‘lovchilarga o‘z soliq majburiyatlarini davlat bilan hal qilish imkoniyatini yaratib berishi uchun yetarlicha imkoniyatlar berishi kerak. Shu bilan davlat soliq to‘lovchilarga ko‘proq daromad olish va daromadini soliqdan yashirmaslikka undashi mumkin deb keltiradi [7].

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 5-iyundagi 359-son qarori va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar O‘zbekistonda soliq tizimini raqamlashtirish jarayonini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ushbu manbalar O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar tajribasini qiyosiy tahlil qilish orqali soliqqa tortish tizimini raqamli texnologiyalar asosida optimallashtirish yo‘nalishlarini aniqlashga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ilmiy tadqiqotning maqsadi va budjet daromadlarini prognoz qilish mexanizmini takomillashtirish masalalarini yoritishda qiyosiy, tarkibiy, analitik va statistik ma’lumotlar tahlili, induksiya, deduksiya, tizimli va kompleksli yondashuv usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O‘zbekistonda soliq tizimini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirishga qaratilgan islohotlar jadal amalga oshirilmoqda. Mazkur o‘zgarishlar natijasida davlat budjeti tushumlarining barqarorligi ta’minlanmoqda hamda soliq to‘lovchilarga yaratilgan qulayliklar ortib bormoqda, shuningdek soliqqa oid munosabatlar samaradorligi sezilarli darajada ortmoqda.

O‘zbekistonda raqamli texnologiyalar soliqqa tortish samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda. Elektron platformalar va avtomatlashtirilgan tizimlar inson omilini kamaytirib, soliq to‘lovchilarga o‘z majburiyatlarini aniq va o‘z vaqtida bajarish imkonini bermoqda. Masalan, “E-Soliq” va “Soliq-24” platformalari orqali tadbirkorlar hamda jismoniy shaxslar soliqlarni real vaqt rejimida to‘lay olishmoqda. Bu esa soliq tushumlarining oshishiga va budjet intizomini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Raqamlashtirish orqali elektron xizmatlarning joriy etilishi soliq to‘lovchilar uchun sezilarli qulayliklar yaratdi. “E-Soliq” tizimi orqali soliqlarni masofadan turib to‘lash, elektron deklaratsiyalarni topshirish hamda barcha jarayonlarni onlayn boshqarish imkoniyati mavjud. Natijada vaqt va mablag‘ tejalib, soliq jarayonlarining byurokratik bosqichlari qisqarib, tadbirkorlar faoliyati bosqichma-bosqich soddalashtirilmoqda.

Soliq tizimiga raqamli texnologiyalarini joriy etish orqali Davlat soliq xizmati organlari faoliyatining samaradorligini oshirilishiga imkon yaratdi. Sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar (Big Data) texnologiyalari yordamida soliq to‘lovchilar haqidagi ma’lumotlar chuqur tahlil qilinib, soliqlarni prognoz qilish, xatoliklarni kamaytirish hamda ma’lumotlar bazasini optimallashtirish jarayonlari amalga oshirilmoqda. Bu esa boshqaruv tizimini yangi bosqichga olib chiqdi.

Bugungi kunda raqamlashtirish orqali O‘zbekiston davlat soliq xizmati organlari faoliyatiga bir qancha yirik raqamli platformalar va tizimlar muvaffaqiyatli joriy etildi. Jumladan,

✓ Elektron hisob-fakturalar tizimi: Tovar va xizmatlar harakatini real vaqt rejimida kuzatish imkonini berdi. Bu esa, o’z navbatida, qo‘shilgan qiymat solig‘i zanjirini uzluksiz nazorat qilish va noqonuniy aylanmalarning oldini olishda muhim omil hisoblanadi;

✓ Onlayn nazorat-kassa mashinalari va virtual kassalar: Chakana savdo va xizmat ko‘rsatish sohasidagi naqd pul aylanmasini qonuniy va shaffof tarzda bo’lishini ta’minlamoqda;

✓ Mahsulotlarni markirovkalash tizimining joriy etilishi, noqonuniy mahsulotlar savdosiga chek qo‘yib, soliq bazasini kengaytirilishiga erishildi;

✓ “Soliq” mobil ilovasining joriy etilishi va soliq to’lovchining shaxsiy kabineti takomillashtirilishi, jismoniy va yuridik shaxslarga uydan yoki offisdan chiqmagan holda soliq majburiyatlarini bajarish, keshbek yig‘ish va hisobotlarni topshirish imkonini berdi.

Soliqqa tortish mexanizmlarining raqamli transformatsiyasi davlat, tadbirkorlik subektlari va fuqarolar uchun quyidagi ko’plab afzalliklarni yaratadi.

Raqamli vositalar biznes operatsiyalarining ochiq va shaffof tarzda amalga oshirilishini ta’minlaydi. Bu yashirin iqtisodiyotning qisqarishiga sezilarli ta’sir o’tkazadi. Sun’iy intellekt va Katta ma’lumotlar (Big Data) tahlili orqali shubhali bitimlar va soliqdan qochish sxemalari avtomatik va inson omilisiz aniqlanadi. Bu esa soliq yukini oshirmasdan, balki soliq bazasini kengaytirish hisobiga budjet tushumlarini ko‘paytiradi.

Soliqdan qochish holatlari va yashirin faoliyatning raqamli nazorati orqali faoliyatning qonuniylashtirilishiga erishiladi. Buning natijasida halol tadbirkorlar uchun teng bozor muhiti yaratiladi. Naqd pulsiz hisob-kitoblar va onlayn to‘lovlarning kengayishi pul oqimlarini davlat tomonidan nazorat qilinishi ta’minlanadi.

Soliq ma’muriyatchiligi bilan bog’liq xarajatlar kamaytirilishiga erishiladi. Soliq tekshiruvlari va hisobotlarni qabul qilish katta vaqt va inson resursini talab qilgan bo‘lsa, “Kameral nazorat” va risk-tahlil tizimlari dasturiy ta’minot yordamida avtomatlashtirilgan. Bu korrupsiyaviy xavflarni minimal darajaga tushiradi. Hisobotlarni tayyorlash, qog‘oz hujjatlarni arxivlash xarajatlari keskin kamayadi. Soliq hisobotlarining avtomatik shakllanishi buxgalteriya yukini yengillashtiradi. Bu esa, vaqt va resurs tejalishiga ta’sir etadi.

Inson omilini cheklash orqali, korrupsiyaga barham berilishi ta’minlanadi. Subyektiv yondashuv yo‘qolib, soliq xizmati organlari va soliq to‘lovchi o‘rtasidagi bevosita muloqot cheklanadi. Soliq hisoblash, tekshirish va xavflarni aniqlashni inson emas, algoritm va sun’iy intellekt bajaradi. Tizim tadbirkorlarni jazolashga emas, xatosini avtomatik aniqlab, uni masofadan turib to‘g‘rilashga imkon berishga yo‘naltiriladi.

Davlat budjeti daromadlarini barqarorlashtirish, soliq bazasini kengaytirish, soliq stavkalarini oshirmasdan, soliq yukini kamaytirish orqali, soliq to‘lovchilar qamrovini

kengaytirish evaziga budjetga tushumlar ko‘payadi. Bu davlatga ijtimoiy loyihalar, ta’lim va tibbiyotni ko‘proq moliyalashtirish imkonini beradi. “Big Data” yordamida davlat kelgusi oylar va yillar uchun soliq tushumlarini aniq rejalashtirish imkoniga ega bo‘ladi.

Kelgusi yil uchun davlat budjetiga soliq tushumlarini prognoz qilishda bevostida o’tgan davrda ijrosi ta’minlangan tushumlar miqdori tahlil qilinib, yillar davomidagi o’sish sur’ati hisobga olinadi va bu ko’rsatkichlar muhim omil bo’lib xizmat qiladi.

2023-yilda Davlat budjetiga jami soliq tushumlari 165,9 trln so’mni tashkil etgan. Bu belgilangan yillik prognozga (163,8 trln so’m) nisbatan 101,3 foizga (2,1 trln so’m) hamda 2022-yilning mos davriga nisbatan 17,4 trln so’mga bajarilgan.

2024-yilda soliq organlari tomonidan respublika bo’yicha budjetda 199,6 trln so’m tushumlari ta’minlanib, 2023-yilga nisbatan 20% o’sishga erishilgan.

2025-yilda iqtisodiy faollikning oshishi hisobiga Davlat budjeti daromadlarining o‘sishi prognoz qilinmoqda. 2025-yil uchun Davlat budjeti daromadlari 308,5 trln so‘m yoki yalpi ichki mahsulotning 19,0 foizi miqdorida prognoz qilingan (2024-yilda 271,1 trln so‘m yoki YaIM ning 19,2 foizi).



1-rasm. Davlat budjeti daromadlari dinamikasi (BMTTD,2024).

2025-yilda bevosita soliq tushumlari 100,3 trln so‘m (davlat budjeti daromadlaridagi ulushi 32,5 foiz), jumladan foyda solig‘i-54,8 trln so‘m (17,7 foiz), aylanmadan olinadigan soliq-3,5 trln so‘m (1,1 foiz), jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i-4,2 trln so‘m (13,6 foiz). Bevosita soliq tushumlarini prognoz qilishda iqtisodiy o‘sish sur’atlari, yangi ishlab chiqarish quvvatlarining joriy etilishi va ish haqining o‘sishi hisobga olindi. Foyda solig‘i bo‘yicha tushumlar 54,8 trln so‘m yoki 2024-yilgi kutilayotgan ijroga nisbatan 5,9 trln so‘mga (12,0 foiz) ko‘p bo‘lishi prognoz qilinmoqda. Oltin qazib chiqaruvchi korxonalardan tashqari to‘lovchilar bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlari 25,1 mlrd so‘m (o‘sish sur’ati 17,8 %) hisob-kitob qilingan [1].

Xulosa va takliflar.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetini tashkil qilish, belgilangan vazifalarning to’laqonli bajarilishini ta’minlash soliq xizmati organlarining eng ustuvor vazifasi hisoblanadi.

O‘zbekistonda soliq tizimini raqamlashtirish iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va tovar aylanmalarini qonuniylashtirishning eng samarali vositasidir. Soliqqa tortish mexanizmlarining raqamli texnologiyalar asosida takomillashishi davlat budjeti daromadlarini kafolatlaydi, mamlakatning xalqaro reytinglardagi nufuzini oshirishga va xorijiy investorlar uchun jozibador bozorga aylanishiga zamin yaratadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan foydalangan holda, zamonaviy talablarga javob beradigan, soliq tizimini raqamlashtirish orqali mablag’larning shakllantirilishi hamda to’g’ri

maqsadli, samarali yo'naltirilishi ko'zda tutiladi. O'z navbatida, soliq tizimining shaffof va adolatli bo'lishi, soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, sohada ishlarni samarali tashkil qilish bo'yicha ko'plab islohotlar olib borilmoqda. Bunga qo'shimcha ravishda quyidagilar:

1. Soliq organlari tomonidan davlat budjeti daromadlariga soliq tushumlarini ta'minlash faoliyatidagi mavjud zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini shaffofligini, soliq solish masalalariga aloqador vazirlik va idoralar bilan hamkorlik, mavjud huquqiy-me'yoriy hujjatlarga amal qilinishini ta'minlash hamda o'rnatilgan nazorat tadbirlarining samaradorligini oshirish;

2. Sun'iy Intellekt va Katta ma'lumotlardan foydalanishni kengaytirish, soliq to'lovchilarning faoliyatini tahlil qiluvchi tizimlarni amaliyotga joriy etish, bu orqali soliq to'lovchining soliqdan qochish ehtimoli yuqori bo'lgan holatlarni oldindan aniqlash va bartaraf etish tizimini yo'lga qo'yish;

3. Tizimda blokcheyn texnologiyasini joriy qilish orqali, qo'shilgan qiymat solig'i zanjirini va ko'chmas mulk, avtotransport oldi-sotdi shartnomalarini blokcheyn orqali ro'yxatdan o'tkazish, natijada, ma'lumotlarning soxtalashtirilishi va o'zgartirilishini cheklaydi.

4. "Soliq Savodxonligi" raqamli platformasini yaratish, ya'ni, tadbirkorlik subektlari uchun maxsus o'quv platformasini ishga tushirish, unda soliq hisobotlarini qanday topshirish bo'yicha interaktiv xizmatlardan foydalanish bo'yicha qisqa videodarslar va sun'iy intellekt asosida ishlaydigan yordamchi bot ishga tushirilishi, bu orqali, soliq to'lovchilar real vaqt rejimida barcha savollarga javob olish imkoni mavjud bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Jo'rayev A.S., Safarov G'.A., Meyliyev O.R. Soliq nazariyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019.
2. Bird, R. M., & Zolt, E. M. Tax Policy in Developing Countries. – Washington, D.C.: The World Bank, 2003. – (Policy Research Working Paper No. 3429).
3. Technology Tools to Tackle Tax Evasionand Tax Fraud | OECD.
4. Keen, M. The Future of Tax Administration.
5. Alka Vashist, "Digital Taxation: Emerging Issuesand Challenges".
6. Богатырева Е.Н. (2014) Теоретические детерминанты налоговых реформ. ИССН 2221-7347 Экономика и право.
7. Erizal J. et al. (2022) Improving the Indonesian Taxation System using Tax Amnesty's Policy //WSEAS Transactions on Business and Economics. – T. 19. – C. 876-884.
8. "Fuqarolar uchun byudjet: 2025 loyiha" axborot nashri (2024).
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 5-oktabrdagi PF–6079-son Farmoni.
10. Vazirlar Mahkamasining "Soliq ma'muriyatchiligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 5-iyundagi 359-son qarori.